

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№7 (3) 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I7Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Usmonov Axrorjon Rustamjon o'g'li*
AMALIY SAN'AT BILAN BOG'LIQ NOMODDIY MADANIY MEROSLAR 9-15
- Зоҳидов Қобилжон Тоиржонович*
ИЛК АРАБ-МУСУЛМОН ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАДИНА ШАҲРИНИНГ ЎРНИ 16-20
- Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich*
SOVET HOKIMIYATINING QORAQALPOG'ISTON ASSRDA IJTIMOIIY TA'MINOT
SIYOSATI 21-26
- Хайназаров Баҳромжон Бахтиёрович*
КАСПИЙОРТИ ВИЛОЯТИДА ТУБ БЎЛМАГАН АҲОЛИ ЭҲТИЁЖЛАРИ УЧУН ТАЪЛИМ
ТИЗИМИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН
(XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ) 27-32
- Мансуров Музаффаржон Шарифжон ўғли*
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ТУРИЗМ ТАРҒИБОТИДА
ТУТГАН ЎРНИ 33-41
- Bobodustov Bobur Mirzaboyevich*
ZARAFSHON DARYOSIDAGI SUV AYIRG'ICH TIZIMLARINI TA'MIRLASHGA ROSSIYA
IMPERIYASI MA'MURIYATINING MUNOSABATI 42-47
- Саидбобоева Гулзора Нематжонова*
XX АСРНИНГ 30–50-ЙИЛЛАР ДАВРИЙ МАТБУОТ МАТЕРИАЛЛАРИ – РЕСПУБЛИКАНИ
ЭЛЕКТРЛАШТИРИШГА ОИД МАНБА 48-55

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Казаков Олим Сабирович*
ЕТАКЧИЛИК ТАЪСИРИДА БОШҚАРУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ 56-60
- Utkirov Abbos Meyliyevich*
CHALLENGES IN IMPLEMENTING TQM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 61-67
- Umronov Eldorbek Sodirovich*
TURISTIK KORXONALAR DOIRASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI 68-76
- Норбоев Аллаёр Исмоилович, Тулкинов Гайрат Кадилович*
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖНОГО
ТУРИЗМА 77-82
- Xolmurotov Fozil Saribayevich*
MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO'JALIK
MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO'LINI BAHOLASH 83-91
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 92-100

Гойипназаров Санжар Баходирович
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЖОРИЙ ЭТИШ НАТИЖАСИДА МЕХНАТ БОЗОРИДАГИ
ЎЗГАРИШЛАР101-110

Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li
BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI111-119

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Юлдашев Фаррух Абдурахманович
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ЭХТИЁЖ ВА МАНФААТЛАРНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИК
ХУСУСИЯТЛАРИ120-126

Тожибоев Сарвар Пулатжон ўғли
ДАВЛАТ ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ127-132

Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li
YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY DAVLAT BARPO ETISH VA UNING G'OYAVIY MAFKURAGA
ASOSLARI133-137

Abdullayev Temur Bobir o'g'li
TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI138-143

Islamov Kamol Tashkulovich
UYG'ONISH DAVRI DUNYOQARASHIDA DINIY VA DUNYOVIY YONDASHUVLAR
NISBATI 144-150

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI151-160

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li
AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING
QO'LLANILISHI161-167

Мухамедова Феруза Баходир кизи
ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
А. КИМА.....168-174

Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich
TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA SO'Z TURKUMLARI: TADQIQI VA TAVSIFI175-180

Tagayeva Sayyora Ulashovna, Inoyatillo Ozoda
FIZIKA FAKULTETI TALABALARIGA NEMIS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION
METODLARINING QO'LLANILISHI181-185

Egamberdiyeva Mohidil Gulomjon qizi
MADANIYATLARARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ANTROPOSENTRIK
TADQIQI186-190

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

- Жавлиев Нурали Баходирович*
МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ НИЗОЛАР ТУШУНЧАСИ ВА МАЗМУН-МОҲИЯТИ191-195
- Узакова Гўзал Шариповна*
БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН
ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ (ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ).....196-204
- Usmanov Alisher Tolmasovich*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI
YURITISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR205-213
- Авезова Элеонора Парахатовна*
РАВНОЕ ПРАВО ГРАЖДАН НА ПОСТУПЛЕНИЕ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ
СЛУЖБУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН214-218
- Мукумов Бобур Мелибой угли*
ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ
АКТОВ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ТЕХНОЛОГИЙ БЛОКЧЕЙН. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ
.....219-224
- Туракулова Назира Абдишукуровна*
СТАРТАП ЛОЙИҲАЛАРИНИ ТУЗИШ ВА МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАРТИБИ:
ДАВЛАТ ВА НОДАВЛАТ НУҚТАИ НАЗАРИДАН225-232

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

- Хўжамкелдиев Гафур Султон ўгли*
СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДА ТИКЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ233-237
- Aziz Hasanovich Rajabiy*
BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH238-242
- Malikova Sevar Samatovna*
BO'LAJAK XOR RAHVARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH243-246
- Васильченко Ольга Анатольевна*
ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ247-251
- Хојитуродова Маһлиёхон Кенжавоу қизи, Иномов Фахриддин О'рмонjonovich*
AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MOVEMENT SKILLS
AND COMPETENCIES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES252-257
- Асадуллаева Наргиза*
БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ
МУСТАҲҚАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁННИ
РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ258-265
- Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi*
BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI266-272

<i>O'ktamova Navruza Botir qizi</i> BO'LAJAK JURNALISTLARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH (SIYOSIY-IJTIMOIIY MATNLAR MISOLIDA)	273-277
<i>Humonjonov Shoxzodbek Dilshodjon ўғли</i> ОЛИЙ ТЕХНИКА ТАЪЛИМИДА МЕХНАТ МУҲОФАЗАСИ ВА ТЕХНИКА ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЭЛЕКТРОН МЕТОДИК АСОСЛАРИНИНГ ИЛМИЙ АҲАМИЯТИ	278-287
<i>Xuramov Ilxom Panjiyevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH	288-292
<i>Azizbek Umarov</i> MEDIATA'LIM – TALABALARNING MEDIA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAN TARMOG'I SIFATIDA	293-299
<i>Saidova Zilola Gadoymurodovna</i> TA'LIM INTEGRATSIYASINING AYRIM MASALALARI	300-307
<i>Raxmonova Gulrux Ulashevna</i> O'ZBEK XALQINING MILLIY HARAKATLI O'YINLARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	308-312
<i>Boynazarova Sayyora Ruzikulovna</i> BIOLOGIYA O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARI VA KOMPETENTLIGINI MONITORING QILISHNING MAVJUD METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	313-317
<i>Shermuhammadov Bahodirjon, Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi</i> MDH OLIMLARI TOMONIDAN CHET TILLARNI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN XATOLAR MAVZUSIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLAR TAHLILI	318-323
<i>Abdusalimova Nargizaxon Olimjon qizi</i> MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB FIZIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI	324-329
<i>Shafiyeva Elnara, Murotmusaev Komiljon Buribaevich</i> THE CHARACTERISTICS OF MENTAL HEALTH IN ELDERLY PEOPLE	330-349

13.00.00- Педагогика фанлари

Malikova Sevar Samatovna

p.f.n., O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti, Vokal kafedراسi professor v.b.

BO'LAJAK XOR RAHBARLARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak xor sinfi o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning zaruriyati, usul va vositalari bayon etiladi. Shuningdek mazkur muammoni tadqiq etgan olimlar fikrlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Ijodkorlik qobiliyati, tafakkur, ijro mahorati, bo'lajak xor rahbarlari, pedagogik mahorat, ta'lim texnologiyalari.

Malikova Sevar Samatovna

Candidate of Pedagogical Sciences,
Acting Professor of the Department of Vocal
Uzbek State Institute of Culture and Art

DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF FUTURE CHOIR LEADERS

Abstract. This article describes the necessity, methods and means of developing the creative abilities of future choir teachers. The opinions of scientists who have studied this problem are also analyzed.

Key words: Creativity, thinking, performance skills, future choir leaders, pedagogical skills, educational technologies.

Маликова Севар Саматовна

Кандидат педагогических наук, и/о профессор
кафедры вокала Узбекского государственного
института культуры и искусства

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ХОРА

Аннотация. В данной статье описаны необходимость, методы и средства развития творческих способностей будущих педагогов хора. Также анализируются мнения ученых, изучавших данную проблему.

Ключевые слова: Творчество, мышление, исполнительское мастерство, будущие руководители хора, педагогическое мастерство, образовательные технологии.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N34>

Kirish. Pedagogik faoliyatning gumanistik yo'nalishi pedagogik muloqotning yangi uslubida amalga oshiriladi[1]. Mahalliy maktab zamon talabiga amal qilib, avtoritar pedagogikadan uzoqlashishga harakat qilmoqda: o'qituvchining o'quvchilarga avtoritar-buyruqbozlik munosabati ularning hamkorlik asosidagi o'zaro ta'siri bilan almashtiriladi.

Ta'lim jarayonini talaba shaxsiyatiga qaratish, uning ehtiyojlari va manfaatlarini to'liq va chuqurroq hisobga olishga intilish, bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijodiy salohiyati, faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, "o'zini namoyon qila oladigan" shaxsni tarbiyalash allaqachon jarayon buyurtmasiga aylangan. Biroq, bu tendensiya faqat o'qituvchi tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lganda, ya'ni, yorqin, g'ayrioddiy, boy ichki dunyoga, o'zini o'zi anglay oladigan ijodiy shaxs sifatida zarur shaxsiy fazilatlariga ega bo'lgandagina to'liq amalga oshirilishi mumkin. Aksariyat pedagogika muassasalari, ayniqsa, musiqa o'qituvchilari tayyorlash uchun mo'ljallangan musiqa fakultetlarining mavjud ish tizimi asosan o'qitishning yangi tamoyillariga unchalik yo'naltirilmagan; umumiy madaniy va kasbiy, axborot va muammoli ta'lim o'rtasida tafovut mavjud.

Musiqa fakultetlari fanlari orasida asosiy o'rinlardan birini xor sinfi egallaydi. Bo'lajak o'qituvchilarning vazifalari faqatgina o'quvchilarga xorda qo'shiq kuylash ko'nikma va malakalarini o'rgatish bilan cheklanmaydi; tadqiqotchilik sifatlarini rivojlantirish asosida ularni mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlash ularning asosiy vazifasidir.

Metodlar va usullar. Amaliyotda va uslubiy adabiyotlarda xor sinfining o'qituvchi-musiqachini tayyorlashdagi o'rni ko'pincha o'quvchilarda xormeyster mahoratini shakllantirish bilan bog'liq. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga doir nazariy va eksperimental tadqiqotlarimiz psixologiya va pedagogikaning bo'lajak mutaxassislarini tayyorlash muammosiga zamonaviy yondashuvlarga asoslangan B.F.Lomov, V.Ya.Lyaudis, A.M.Matyushkin, G.P.Trofimova, G.A.Tsukerman tadqiqotlarini e'tirof etish zarur[2;44-45].

Zamonaviy psixologiya-pedagogika fani nuqtai nazaridan o'rganish - bu shunchaki faoliyatni amalga oshirishga va tayyor bilimlarni o'qituvchidan talabaga usullar va harakatlarni yodlash va nusxalash orqali uzatishga qaratilgan axborot jarayoni emas balki, o'zaro ta'sir va muloqotda, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatida ifodalangan ijtimoiy jarayon sifatida ishlaydi.

A.I.Anisimov, G.A.Dmitrievskiy, A.A.Yegorov, V.I.Krasnoshchekov, K.A.Sokolova, B.E.Chaykina, I.G.Chesnokova, A.A.Yurlova kabi xor rahbarlari tadqiqotlarida xorga pedagogik rahbarlikning o'zaro ta'siri va uslubining alohida muammolari ko'rib chiqiladi[3]. Shunga qaramay o'quv jarayonda xor jamoalarini pedagogik boshqarish uslubini ijodiy rivojlanishining eng muhim omili sifatida har tomonlama yoritish hamda ilmiy-pedagogik asoslashga bag'ishlangan umumlashtiruvchi tadqiqotlar mavjud emas.

Xor jamoalari amaliyotida o'zaro ta'sir imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmaydi, xormeysterlar faoliyat, muloqot va mustaqil pedagogik tashabbusni rivojlantirish imkoniyatlarini har doim ham amalga oshirmaydilar.

Mulohaza va natijalar. Bo'lajak xor o'qituvchisi shaxsini ijodiy rivojlantirish metodikasining yetarli darajada rivojlanmaganligi ko'pincha o'qituvchilar tomonidan passiv, "muloqot" o'qitish usullaridan foydalanishga olib keladi, bu esa tadqiqotga doir mutaxassisni tayyorlash nuqtai nazaridan ijobiy natija bermaydi. Ushbu muammoni hal qilishda asosiy rolni ularning intonatsion-obrazli tafakkurini, badiiy tasavvurini rivojlantirish muhim rol o'ynaydi, shunda o'quvchilar musiqiy kompozitsiyani mustaqil tahlil qilish asosida badiiy butunlik haqidagi paydo bo'lgan intonatsion-eshitish qobiliyati orqali paydo bo'lgan g'oyalarini mazmunli umumlashtira oladilar.

Bo'lajak xor sinfi o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari amaliyotda bir qator muammolarni hal qilishni talab qiladi.

- muammo bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- bo'lajak xor sinfi o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda o'quv-xor faoliyati imkoniyatlarini aniqlash;
- o'quv va xor faoliyatida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mezonlarini aniqlash;
- xor sinflarida talabalarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi, dirijyor va ijrochilar o'rtasidagi hamkorlik shartlarini ishlab chiqish hamda eksperimental sinovdan o'tkazish;

Jarayon to'laqonli yaxlit mexanizm sifatida benuqson ishga tushishi uchun yuqoridagi aniqlangan kamchiliklarni quyidagi usullar yordamida bartaraf etilishi mumkin:

- talabalarda xor darslarining mazmuni musiqiy asarning mustaqil va ishonchli talqinini yaratish hamda uni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish;
- musiqiy talqinlarning yaxlitligi niyat va ifoda vositalarining birligiga asoslanishi;
- darslarning uslubiy tamoyili - o'qituvchi va talabalarining ijodiy sherik sifatida hamkorligini yo'lga qo'yish kabilarni tashkil etadi.

Intellectual-evristik qobiliyatlar g'oyalarni, fantaziyani, tasavvurni, analogiyalardan foydalanish qobiliyatini, bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarga o'tkazish qobiliyatini tavsiflaydi. Bo'lajak xor jamoasi rahbarining ijodiy rivojlanish muammosini muvaffaqiyatli hal etish uning musiqiy kompozitsiyani o'z talqinini yaratish hamda uni xor bilan amaliy ishlarga yo'naltirish qobiliyatini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Xor rahbari faoliyati namoyon bo'lishining asosiy yo'nalishlari uning ijrochilik faoliyatidir.

Pedagogik munosabatlarning rivojlanayotganidan dalolat beradigan unsur bu xor jamoasining o'quv va ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga muvofiq muammoli ta'limni tashkil etish, taklif qilingan muammoning yechimini izlashga asoslangan tartibga solingan izchillik va davomiy jarayondan iborat. Muammoning manbai muallif matnining ko'plab mumkin bo'lgan talqinlari va uning eng ishonchli talqinini topish istagi o'rtasidagi ziddiyatdir. Bunday mashg'ulotning maqsadi o'quvchilarning ijodiy topshiriqlarni bajarishda mustaqilligini rivojlantirishdir. Guruh mashg'ulotlarida individual ijodiy fazilatlarini rivojlantirishni o'rganadigan metodologik yondashuv xor sinfi jamoasining to'liq ijodiy rivojlanishiga ularning dirijyor bilan hamkorlik asosidagi o'zaro munosabati sharoitida erishiladi, bu xorning barcha a'zolariga o'zlarining ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, o'zini shaxs sifatida namoyon etishga imkon beradi.

Xor sinfi o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- asarning obrazli mazmuniga chuqur kirib borish;
- ijro maqsadini shakllantirish, uni musiqiy ekspressivlikni izohlash mantig'i bilan birgalikda qo'llash;
- ijrodagi muammo va kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini topish qobiliyati;
- asarning xor bilan o'zaro munosabatlarining samaradorligi.
- musiqiy kompozitsiyani o'qish, improvizatsiya ijrosi imkoniyatlarini ko'rish qobiliyatida ifodalangan ijodiy faoliyati.

Xulosa. Qo'yilgan maqsadni amaliyotga tatbiq etish jarayonida quyidagi usullar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir:

- tanlangan muammo bilan bog'liq holda falsafiy, psixologik-pedagogik, musiqashunoslik, musiqiy-pedagogik va dasturiy-metodik xor adabiyotlarini o'rganish va tahlil qilish;

- ijro etilayotgan asarlarning talqinini yaratish, amalga oshirish jarayonida xor rahbari va ijrochilar jamoasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlari hamda natijalarini o'rganishga qaratilgan pedagogik kuzatuvlarni yo'lga qo'yish;

- tadqiqot tashkil etish, shu jumladan izlash, aniqlash va shakllantirish bosqichlari, musiqiy-pedagogik amaliyotda tegishli tajribani tahlil qilish va xor rahbarining jarayondagi shaxsiy ishtiroki;

Адабиётлар/Литература/References:

1. Короткова, Татьяна Михайловна "Развитие творческих способностей будущих учителей музыки на хоровых занятиях"., Москва 1996 й.
2. 2. Особенности музыкального языка в современной хоровой музыке //Музыкальное искусство: конспект лекций. - Красноярск: КГТИ, 1993. - с. 46-65.
3. Развитие творческих способностей будущих учителей музыки на занятиях хора// Педагогика развития и перемены в Российском образовании: Материалы 2-й научно-практической конференции.-Ч. -Красноярск, 1995.-с. 135-137
4. Васильченко, Ольга Анатольевна (2022). МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК НЕОБХОДИМЫЙ АСПЕКТ ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (12), 1393-1397.
5. Васильченко Ольга Анатольевна 2022. НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКИ. *Conferencea* . (Jun. 2022), 269–273.
6. Мансурбекова Феруза Гайратовна (2020). ВОПРОСЫ ОБЪЕКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ И НАУЧНОГО ТВОРЧЕСТВО В ПОДГОТОВКЕ ТВОРЧЕСКИХ ЛИЧНОСТЕЙ. *European Journal of Arts*, (1), 144-147.
7. Nasritdinova, M. (2023). ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 199-204.
8. Насритдинова, М. (2023). ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOLAJAK MUSIQA TA'LIMI OQITUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(4), 241-246.
9. Nasritdinova, M. N. (2023). INNOVATIVE PEDAGOGICAL MODEL OF DEVELOPMENT OF ARTISTIC-CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE MUSIC T-EACHERS ON THE BASIS OF ARTPEDAGOGICAL APPROACH. *Science and innovation*, 2(B4), 711-716.
10. Malikova Sevar Samatovna. (2022). O'ZBEK KOMPOZITORI MUSTAFO BAFOYEV IJODIDA XOR YOZUVINING OZIGA XOS HUSUSIYATLARI. *Conferencea*, 142–147. Retrieved from <https://www.conferencea.org/index.php/conferences/article/view/806>
11. Malikova Sevara Samatovna (2022). ORGANIZATION OF VOCAL CHORES AND ITS ROLE IN MUSICAL AND AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN. *Проблемы современной науки и образования*, (5 (174)), 66-73.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).